



O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI VA FAOLIYATI

Ibragimova Marg'ubaxon Doniyorjon qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Ibrohimova Ulug'oy Doniyorjon qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

“Meni kishilarimizning ongida paydo bo'lgan stereotip ko'p o'ylantiradi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo'rg'onining qo'riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to'g'ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lishi kerak”. *Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*

Annotatsiya: Mamlakatimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Natijada oilaga, ayol zotiga bo'lgan munosabatimiz tobora yuksalib, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatish hayotimizning ma'no-mazmuniga aylanmoqda. Bugun O'zbekiston ayollari barcha jabhalarda o'z o'rni va munosib mavqeyiga ega bo'lib bormoqda. Keyingi saylovlarda yurtimiz tarixida birinchi marta milliy parlament tarkibidagi xotin-qizlar soni dunyo miqyosida namunali ko'rsatkichga ko'tarilgani ham bu fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi.

KIRISH QISM: Bugungi kunda O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ayollarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida to'laqonli ishtirok etishiga erishish, gender tenglik va reproduktiv salomatlikni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosatini jahon hamjamiyati e'tirof etmoqda.

ASOSIY QISM: Mamlakatimizda ayollar o'z iqtidorlarini namoyon qilish qobiliyatiga yarasha ishlashi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ana shu imkoniyatlardan foydalanish darajasi esa ayollarga bog'liq. Agar ayol o'zini nafaqat ayol sifatida, jamiyatlardagi o'z o'rni va mavqeyini anglasa, unga tabiat ato etgan qobiliyatni to'g'ri yo'naltira olsa, faqat oila qurishni emas, balki halol mehnati bilan jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishi lozimligini hayotining maqsadi deb bilsa, bu ayol, albatta, o'z hayotidan qanoatlana oladi. Agarki faqat oilani hayotining asosiy maqsadi qilsa, pirovard natijada namoyon qilinmagan qobiliyat, foydalanilmagan imkoniyat, erishilmagan yutuqlar u uchun armon bo'lib qoladi va qalbida barcha narsaga erisha olgan ayollarga nisbatan hasad tuyg'usi shakllanadi. Bu, o'z navbatida, uning g'azabnok bo'lishiga olib keladi. Shunisi quvonarliki, so'nggi yigirma yilda o'z maqsadini aniq bilgan, oila bekasi, farzandlarining onasi bo'lish bilan bir qatorda jamiyat



taraqqiyotining turli sohalarida kasbi orqali kamolotga erishayotgan ayollarning soni orib bormoqda. Yurtimizda barcha uchun “Teng imkoniyat va teng huquqlar belgilangan”, shu bois maosh olish, ishga kirish, ma’lum sohada muayyan yutuqlarga erishish xoh erkak, xoh ayol bo’lsin, bu insonning maqsadli faoliyatiga bog’liq.

TADQIQOT: Hozirgi vaqtda mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Jumladan, davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1400 ga yaqin xotin-qiz rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda. Ulardan 17 nafari senator, 16 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, 1075 nafari esa xalq deputatlari mahalliy kengashlari tarkibida faoliyat yuritmoqda.

O’nlab opa-singillarimiz “O’zbekiston Qahramoni”, “O’zbekiston fan arbobi”, “O’zbekiston xalq o’qituvchisi”, “O’zbekiston xalq shoiri”, “O’zbekiston xalq artisti” singari davlatimizning yuksak faxriy unvonlari, orden va medallariga sazovor bo’lgan. Ularning orasida 500 nafardan ziyod fan doktorlari va akademiklar, minglab fan nomzodlari o’z bilimi, iste’dodi bilan Vatanimiz ravnaqi yo’lida astoydil xizmat qilib kelmoqda. Jamiyat va davlat hayotida faollik, tashabbuskorlik ko’rsatgan, o’zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishi va farovonligi mustahkamlanishi, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo’shgan xotin-qizlarga beriladigan “Mo’tabar ayol” ko’krak nishoni ta’sis etildi.

Mazkur ko’krak nishoni bilan:

- jamiyat va davlat hayotida faollik va tashabbuskorlik ko’rsatgan;
- o’zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishiga va farovonligi mustahkamlanishiga, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo’shgan;
- sog’lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularni vatanparvarlik va istiqloq g’oyalari sadoqat ruhida tarbiyalash, joylarda ma’naviy-axloqiy muhitni sog’lamlashtirish va milliy qadriyatlarimizni keng targ’ib etish borasida ibratli faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar taqdirlanadi

MUHOKAMA: Zamonaviy ayol deganda, birinchi navbatda, oliy ma’lumotga ega, dunyoqarashi keng, iqtisodiy jihatdan mustaqil, ma’naviyati yuksak, faol rahbar yoki xodim, barkamol avlodni tarbiyalaydigan mehribon ona, hurmat-ehtiroimga sazovor ayol, saranjom-sarishta bekani ko’z oldimizga keltiramiz. Bunday ayolning munosib ijtimoiy-siyosiy maqomini ta’minlash mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning tub maqsadidir.

Shu o’rinda respublikamizda xotin-qizlar rivojlanishi uchun katta shijoat bilan targ’ibot olib borayotgan Shohida Yusupova haqida aytib o’tishni joiz topdim. Shohida Yusupova - 24 yoshli Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, Shine Qizlar Akademiyasi rahbari, 30 dan ziyod Xalqaro tashkilotlar elchisi, 50 dan ziyod Xalqaro tanlov va festivallar g’olibi, “Shahide” brendi, “Shiny travels” tur kompaniyasi asoschisiman, 4 ta til bo’yicha tarjimon.



Xalqaro jurnalistika bo'yicha bakalavriatni tamomlagan, Harvard Universitetining "Rahbarlik va boshqaruv" yo'nalishida, Berlin Biznes Institutida "Marketing va kommunikatsiyalar" yo'nalishida, Rossiyalik eng mashhur mentorlarning biznes, marketing, shaxsiy brend bo'yicha professional kurslarida, bundan tashqari psixologiya, stil va professionak makiyaj etiket bo'yicha turli kurslarda o'qigan va o'n minglab qizlarga bilim va tajribalarimni ulashib kelmoqda!

„18 yoshimdan beri moliyaviy mustaqilman, oylik daromadimni ochiq aytish shartmaskuya lekin 21 yoshimda dadamga mashina sovg'a qildim, 23 yoshimda Toshkentdan 3 xonali uy oldim, bir yil oldin ota-onamga muqaddas Umra ziyoratiga yo'llanma sovg'a qildim, ota onamga turli davlatlarga sayohatlar sovg'a qildim, o'zim ham dunyoning o'nlab mamlakatlarini kezdim. Shaxsiy rivojlanishim, karyeramni qurishim uchun eng professional Xalqaro kurslarda o'qidim va o'qiyapman. Va ayol qizlarga ham moliyaviy mustaqil bo'lish, shaxsiy rivojlanish, o'z bizneslarini rivojlantirishga yordam beraman!, - deya ta'kidlaydi kamtar targpibotchimiz. Shohida Yusupovaning hayotdagi shiori - Allohga chiroyli tavakkul qilgan holda o'z ustida ishlash, rivojlanishga bardavom harakat qilish va yaxshi ustoz muvaffaqqiyatlarning asosi.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, hozirgi vaqtda xonadonlarimizning fayzu farishtasi bo'lgan, farzandlarimizni barkamol insonlar etib tarbiyalashga munosib hissa qo'shayotgan ayollarimiz barcha islohotlarimizda faol ishtirok etmoqdalar. Bu, o'z navbatida, hurmatli onalarimiz, opa-singillarimizga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining uzviy qismi bo'lib kelayotganining yorqin dalolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzurida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida Prezident qarori (13.08.2019)
2. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (02.09.2019)
3. Базарова Д. "Ўзбекистонда хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш – давр талаби". –Тошкент: ТДЮУ, 2019.
4. Ўзбекистон республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотлари, 2019. // www.stat.uz
5. https://t.me/+_9oAGIBdCXQzYzNi